

## ПАХТА ТОЗАЛАШ KORXONALARIDA CHANG HAVODAN IFLOSЛИKЛАРНИ USHLAB QOLISH QURILMASINING SANOATDAGI O'RNI

*Saidolimxon Saydaxmatxonov Sayfidinxon o'g'li*  
*Namangan Muhandislik Texnologiya Instituti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada paxta tozalash korxonalariga qabul qilingan paxta xom ashyosining tarkibida bo'lgan mineral va organik aralashmalarning ishlab chiqarish jarayonida ajralib chiqqan iflosliklarni ushlab qolishda siklon qurilmasining o'rni hamda tozalash samaradorligiga ta'siri o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** paxta, ifloslik, tozalash effekti, siklon qurilmasi, filtr, tezlik, zichlik, paxta oqimi, pnevnotransport.

Paxta tozalash sanoatini izchil va barqaror rivojlantirish, tarmoq korxonalarida zamonaviy asbob-uskunalarini joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali va oqilona foydalanish darajasini oshirish, jahon paxta bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish asosi hisoblanadi.

Jahon bozorida zamonaviy texnika va texnologiya asosida chigitli paxtaning miqdori va sifati yo'qolishini kamaytirish hamda to'la yigiriluvchanlik xususiyatlarida son va sifatini saqlab qolgan holda qayta ishlashni talab etmoqda. Sifatli to'la olish birinchi navbatda paxtani mineral va organik iflos aralashmalardan hamda paxta xom ashyosi tarkibidagi chang zarralaridan tozalash samaradorligiga bog'liqdir.

Korxonalarining ishlab chiqarish rejasida olinadigan mahsulotlar miqdori belgilangan bo'lib, paxtani mayda va yirik iflosliklardan qayta tozalashlar bosqichlari ko'rsatiladi, paxtani iflosligi paxtani tozalash korxonalarida maksimal 22% gacha belgilanadi.

Ma'lumki, hozirgi kunda paxta tozalashda korxonalarida chang havodan iflosliklarni ushlab qolish uchun siklon qurilmasidan foydalaniladi. Siklon qurilmasi (texnikada) — havo va uning tarkibidagi muallaq qattiq zarralar (masalan, suv tomchilari yoki chang)dan markazdan qochma kuch ta'sirida tozalash uchun mo'ljallangan apparat. Tuzilishi past tomonga konussimon torayib boradigan silindrik korpus, korpusga urinma yoki spiralsimon tarzda o'rnatiladigan patrubok va chiqish quvuridan iborat. Chang havo katta tezlikda patrubok orqali Siklonning yuqori qismiga yuboriladi. Chang havo aylanma harakatlanib, yuqoridan pastga spiralsimon uyurma hosil qilib tushadi. Shunda markazdan qochma inersiya kuchi ta'sirida muallaq qattiq zarralar (masalan, chang zarralari) Siklonning devoriga yo'naltiriladi, chang havo tarkibida bo'lgan iflosliklar korpus tagiga tushib, chiqish patrubogi orqali chiqadi. Tozalangan havo chiqarish quvuri orqali harakatlanib, ichki uyurma hosil qiladi va va

filtr orqali tashqariga chiqib ketadi. Ma'lumki, hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida mayda iflosliklardan tozalovchi uskunalarning aspirasiya (lotincha "aspirasiya" so'zidan olingan bo'lib surish, nafas olish degan ma'noni anglatadi) tizimida kamchiliklar kuzatilmoqda. Turli sirdan o'tgan mayda iflosliklar va kalta tolalar iflosliklarni olib ketuvchi shnekka tushadi.

Bunga sabab changli havoni chang ushlagichga olib ketadigan trubadagi havo bosimi balandligidir. Changli havoning ko'p qismini mayda iflosliklar va kalta tolalar tashkil etadi.

Bu kamchilikni bartaraf etish uchun changli havoni so'rib oluvchi uskunadagi ya'ni ventilyatoridagi havo bosimini pasaytirib, iflosliklarni olib ketuvchi shnek ustiga vakuum-klapan o'rnatishdan iborat. Bu vakuum-klapaning vazifasi uskuna ichidagi aerodinamik holatni saqlab, kalta tolalarni ushlab qoladi.

Xo'jaliklardan transportlarda tashib keltirilgan paxta hosili kontraktasiya shartnomasiga binoan paxta tozalash korxonalari qoshidagi va korxonada tashqarisida joylashgan paxta tayyorlov punktlarida qabul qilib olinadi. Har yilgi paxta tayyorlash davlat rejasini bajarish uchun, dalalardan keltirilgan paxtani o'z vaqtida qabul qilib olish, markazlashgan usulda quritish-tozalash, yaxshi saqlash uchun paxta tayyorlash punktlari, (paxta tozalash korxonalari) quyidagi talablarni bajarishlari kerak:

-paxta yetishtiradigan klasterlar, fermer xo'jaliklar bilan har yili hamma hosilni davlatga sotish uchun kontrakt shartnoma tuzishi va uning bajarilishini tekshirish;

-qo'lda va mashinada terilgan chigitli paxtaning sifatini qanday qilib saqlash, navlarga to'g'ri ajratish haqida tushuntirish o'tkazish;

-chigitli paxtani qabul qilishda davlat standartida belgilangan qoida va me'yorlariga qat'iy rioya qilish;

-quritish-tozalash bo'limlarining to'xtovsiz va unumli ishlashini ta'minlash;

-qabul qilingan chigitli paxta uchun, to'g'ri va o'z vaqtida hisob-kitobni amalga oshirish;

-qabul qilingan paxtani seleksion va sanoat navlari bo'yicha uning terim turiga qarab alohida to'daga ajratish;

-urug'lik paxtalarni ham reproduksiya bo'yicha alohida to'dalarga ajratish;

-saqlanayotgan paxtaning sifatini o'z vaqtida nazorat qilish va korxonada rejasiga muvofiq jo'natib turish;

-paxtani saqlash, quritish, tozalash va paxta tozalash korxonasiga jo'natish vaqtlarida uning sifatini buzmaslik va isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;

-paxta tayyorlash punktida saqlanayotgan paxtaning hisobini to'g'ri olib borish;

-paxtani qabul qilish, saqlash, quritish va tozalash hamda korxonaga yetkazib berish uchun sarflangan harajatlarni kamaytirish choralarini ko'rish;

-yong'indan saqlash va xavfsizlik texnikasi qoidalariga muvofiq tadbirlarni tashkil etish;

-paxtani tayyorlash punktlarida ishlatiladigan hamma mexanizmlardan unumli foydalanish va ishlatiladigan har bir xo‘jalik, extiyot qismlarini tejab-tergab sarflash choralarini ko‘rish;

-paxta tozalash korxonasiidan keltirilgan urug‘lik chigitni saqlash va o‘z vaqtida xo‘jaliklarga, shirkatlarga qoidaga muvofiq tarqatish. Paxtani qabul qilish davrida korxonada direktorining (rahbarining) buyrug‘iga muvofiq paxta tayyorlash punkti territoriyasi ikki yoki uchta shartli qismga (zonaga) bo‘linadi. Qabul qilinib maxsus guruhlariga ajratib buntlangan paxtalar pnevмотransportlarda, transpartiyorlarda hamda bunt buzgichlar orqali qayta ishlash uchun texnologik jarayonga yo‘naltiriladi.

Umumiy xulosa qilib aytganda paxta tozalash korxonalarida chang havo tarkibidagi mayda iflosliklarni tozalash uchun vertikal va parallel joylashgan paxtani ketma-ket harakatlantiruvchi takomillashtirilgan pnevмотransport, siklon hamda separator qurilmalarining tozalash samaradorligiga bog‘liq.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.T.Xojjiyev, B.M.Mardonov, F.N.Sirojiddinov «Paxta tozalash jarayonini modellashtirish» o‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2018.
2. . [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi](#) (2000-2005).
3. B.M. Mapdonov, X.S.Usmanov, F.N.Sipojiddinov. Modelipovanie pportsessa ochistki xlopka-sipsa pod deystviem veptikalno paspolojennix kolkovix bapabanov// Ppoblemi mexaniki.-2019.-№1.-S.27-32.(05.00.00; №6)
4. M.Musayev. Sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyasi asoslari
5. Mardonov B.M., Usmanov Kh.S., Tangirov A., Karimov A., Sirojiddinov F. Theoretical issues of development an innovative technology of cleaning raw cotton // International Journal of Advanced Research in Sciyence, Yengineyering and Technology (IJARSET) ISSN: 2350-0328, Volume-6, Issue-3, December, 2019-R.8285-8293.